



Fan/modul kodi <i>CTCL16MBK</i>	O'quv yili 2025-2026	Semestr 5	ECTS-Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kataloglashtirish va klassifikatsiyalash	72	108	180
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga axborot-kutubxona muassasalarining kataloglari va ularning turlari, hujjatlarni kataloglashtirish va klassifikatsiyalash tamoyillari, hujjatlarni tizimlashtirish usullarini o'rgatish hamda amaliy bilimlar berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - axborot-kutubxona kataloglari tizimi, hujjatlarni tasvirlash tamoyillari, hujjatlarga ilmiy-texnik ishlov berish, tizimlashtirish, kataloglashtirish usullari, hujjatlarni klassifikatsiyalash jarayonlari, turlari va ulardan foydalanish bosqichlari, kutubxona bibliografik klassifikatsiya jadvallari tuzilmasini o'rgatish hamda talabalarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>III.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. Axborot-kutubxona kataloglariga kirish.</b></p> <p>Axborot-kutubxona kataloglarining turlari va shakllari. Kutubxona kataloglari tuzilishining nazariy asoslari. Fondlarni to'liq aks ettirish bo'yicha kataloglarning bir-biridan farqi. Alfavit katalogni tashkil qilish xususiyatlari. Xalqaro Kataloglash Prinsiplari (ICP). Kutubxona Reference Modeli (LRM).</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mavzu. Kataloglashtirish etikasi.</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Hujjatlarda bibliografik tavsif tuzilish</b></p> <p>Bibliografik tasvirning nazariy asoslari. Tavsif nazariyasi va metodikasi Bibliografik tavsif sxemasiga qo'yiladigan talab va qoidalar. Tavsif prinsiplari. Har xil turdagi nashrlarga alohida tasvir berish. Bibliografik tavsif tuzishning umumiy va xususiy metodikasi. Hujjatlarning asosiy turlari va hujjat elementlari RDA (Resource Description and Access-Resurs tavsifi va kirish) veb-muhitdagi resurslarni tavsiflash va ularga kirish uchun standart. Tasvir usullari va qoidalari.</p> <p style="text-align: center;"><b>3-mavzu. Kutubxona klassifikatsiyasiga kirish.</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Klassifikatsiyalash nazariyasi.</b></p> <p>Klassifikatsiyaning fan taraqqiyotidagi ahamiyati. Hujjatlarni klassifikatsiyalash tizimining asosiy turlari va ularni qo'llash sohalari. Hujjatlarni sistemali klassifikatsiyasi va fanlarni klassifikatsiyalash o'rtasidagi mutanosiblik umumiyligi va farqlari. Sharqda fanlar klassifikatsiyasi paydo bo'lishi va shakllanishi. G'arbiy Yevropada kutubxona</p>			



klassifikatsiyalarining vujudga kelishi

#### **4-mavzu. Hujjatlarni klassifikatsiyalash etikasi.**

Tizimlashtirishning vazifasi va maqsadi. Tizimlashtirish obyekti va usullari haqida tushuncha. Tizimlashtirishning umumiy va xususiy usullari. Umumiy usullarining asosiy prinsip va qoidalari. Tizimlashtirish jarayonlari. Indeks turlari. Klassifikatsiyalashning asosiy tamoyillari va usullari. Indekslash qoidalari

#### **5-mavzu. Kutubxona bibliografik klassifikatsiya nashrlari. O'zbekiston Respublikasi kutubxona bibliografik klassifikatsiyasi**

O'zbekiston Respublikasi kutubxona - bibliografik klassifikatsiyasi (K BK). K BK jadvallarining tuzilishi. Klassifikatsiya sxemasining tuzilishi. uning afzalligi va kamchiligi. Jadvallarning tarkibiy qismlari. Klassifikatsiya jadvalidagi shartli belgilar, ularning vazifalari. Asosiy va yordamchi jadvallarning shartli belgilari. Namunaviy bo'linishlar.

#### **6-mavzu. Tizimlashtirish jarayonlari.**

Tizimli katalogni tashkil qilish. Tizimli katalogni tashkil qilish jarayoni to'g'risida umumiy tushuncha. Katalog bo'linmalarini vujudga keltirish. Tizimli katalogni rasmiylashtirish. Ajratkich kartochkalarni rasmiylashtirish. Tizimli katalogni tahrir qilish. Tizimli katalogning hozirgi davrga muvofiqligi.

#### **7-mavzu. Xalqaro klassifikatsiyalash tamoyillari. Universal o'nlik klassifikatsiya (DDC) jadvalining qo'llash usullari.**

Dewey klassifikatsiya jadvali (DC). UO'K (DDC) ning yaratilishi. Universal o'nlik klassifikatsiya tuzilmasi. Jadval bilan ishlash usullari UO'Kning klassifikatsiya sifatidagi asosiy belgilari, asosiy jadvallari, umumiy va maxsus yordamchi jadvallar tushunchalarini muvofiqlashtirish usullari. UO'K asosiy bo'limlari. Maxsus va namunaviy bo'linishlari. Universal o'nlik klassifikatsiya strukturasini.

#### **8-mavzu. Jahonning yirik kutubxonalarida klassifikatsiyalash usullari.**

Rivojlangan mamlakatlarda kutubxona klassifikatsiya jadvallarining qo'llanilishi. AQSH Kongressi kutubxonasining klassifikatsiyasi (LCC).

#### **9-mavzu. MARC 21 formati. Elektron kataloglashtirish jarayonlari**

Elektron kataloglarni tashkil qilish jarayonlarining asosiy bosqichlari. Axborot-kutubxonaning elektron katalogini yaratish va ulardan foydalanish. Elektron katalog samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari. Kartochkali katalogdan elektron ko'rinishli katalogga o'tkazish masalalari. Kutubxonalarda MARC formatlarining yaratilishi tarixi.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Tavsif sxemasi va unga qo'yiladigan talab va qoidalarni tahlil qilish.
2. Kataloglashtirish etikasi talablari. Bir va ikki muallifi hujjatlarga bibliografik tasvir berish. Uch va to'rt undan ortiq muallifi hujjatlarga bibliografik tasvir berish.

3

3. Analitik tavsif sxemasi va unga qo'yiladigan talab va qoidalarni tahlil qilish (jurnal, gazeta va to'plamlar misolida). Ko'p jildli nashrlarga, to'plam turlariga tavsif tuzish.
4. Xalqaro Kataloglash Prinsiplari (ICP), Kutubxona Reference Modeli (LRM).
5. RDA (Resource Description and Access-Resurs tavsifi va kirishi)
6. BBK jadvali asosida klassifikatsiyalash prinsiplari
7. Klassifikatsiya jadvalarida yordamchi jadvallardan foydalanish metodlari
8. BBK jadvali asosida turli fan sohalariga oid adabiyotlarni sistemalashtirish.
9. UO\*K (DDC) jadvali asosida klassifikatsiyalash prinsiplari, indekslash va tahlil qilish
10. UO\*K jadvali asosida hujjatlarni indekslash va tahlil qilish
11. UO\*K jadvali asosida turli fan sohalariga oid adabiyotlarni sistemalashtirish.
12. AQSh Kongressi kutubxonasining klassifikatsiyasi (LCC) da sistemalashtirish
13. Mualliflik jadvalidan foydalanib, har xil fan sohalariga oid adabiyotlarning mualliflik belgilarini aniqlash usullari
14. MARC 21 formati. Elektron kataloglashtirish jarayonlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Xorijiy kutubxonalarda kataloglashtirish tizimlari va tamoyillari tahlili
2. AQSh Kongress kutubxonasining klassifikatsiyalash tizimi va kutubxona nashrlarining bibliografik tavsifi tahlili
3. Kutubxona bibliografik klassifikatsiya nashrlari. O'zbekiston Respublikasi kutubxona bibliografik klassifikatsiyasi
4. O'zbekiston KBK jadvallari asosida texnik fanlarga oid adabiyotlarni klassifikatsiyalash va yordamchi jadvallardan foydalanish usullari tahlili
5. Universal o'nlik klassifikatsiya jadvalining bo'limlariga oid adabiyotlarni klassifikatsiyalash va yordamchi jadvallardan foydalanish usullari tahlili
6. Elektron kataloglashtirish tarixi. Kutubxonalar ishida avtomatlashtirish jarayonlari tahlili
7. Xorijiy kutubxonalarda klassifikatsiyalash tizimlari va tamoyillari tahlili
8. Rivojlangan mamlakatlarning kutubxonalar klassifikatsiya tizimlari
9. Xorijiy kutubxonalarda klassifikatsiyalash usullari va tamoyillari tahlili
10. Axborot-kutubxona muassasalarida elektron kataloglashtirish jarayonlari
11. Rivojlangan mamlakatlarning kutubxonalarida elektron kataloglashtirish jarayonlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**  
Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

	<ul style="list-style-type: none"> <li>❖ Axborot-kutubxona muassasalarida qo'llaniladigan kataloglar turlari, bibliografik tasvir tuzilishining nazariy asoslari va qoidalari, hujjatlarni tasvirlash tamoyillari, hujjatlarni klassifikatsiyalash jadvallari, axborot-kutubxona kataloglar tizimi hamda elektron katalog <b>haqida tasavvurga ega bo'lishi</b>;</li> <li>❖ Axborot kutubxonachilik va nashriyot ishi bo'yicha milliy standart tizimi talablari asosida turli xil hujjatlarga bibliografik tasvir berish qoidalarni, axborot resurslariga ilmiy-texnik ishlov berishni, O'zbekiston kutubxona-bibliografik klassifikatsiyasini, Universal o'nlik klassifikatsiyani, mualliflik jadvallarni, hujjatlarni klassifikatsiyalash jarayonlarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi</b>;</li> <li>❖ Axborot-kutubxona muassasalaridagi turli xil hujjatlarga bibliografik tasvir elementlari orqali ishlov berish, O'zbekiston kutubxona-bibliografik klassifikatsiyasi va universal o'nlik klassifikatsiya jadvalaridan foydalanib, hujjatga mos indeksni aniqlash, mualliflik belgilarini qo'ya olish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</b>.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>❖ Ma'ruzalar;</li> <li>❖ Amaliy ishlarni bajarish va xulosalash</li> <li>❖ Interfaol key-s-stadilar;</li> <li>❖ Blits-so'rov;</li> <li>❖ Guruhlarda ishlash;</li> <li>❖ Faqdimotlarni qilish;</li> <li>❖ Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <p>1 Batley Sue Classification in Theory and Practice: Second edition - Sue Batley - Chandos Publishing is an imprint of Elsevier Limited, 2014 - ISBN: 978-1-84334-785-9 (print) ISBN: 978-1-78063-466-1 (online).</p> <p>2 Ganiyeva B.I. Kataloglashtirish va klassifikatsiyalash: darslik - Toshkent: Aloqachi, 2021 -206 b</p> <p>3. Ganiyeva B.I. Axborot kutubxona katalogi va fondi: o'quv qo'llanma - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017 -212 b.</p> <p>4 Ganiyeva B.I. Kutubxona kataloglari: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012 -123 b</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>5 Introduction to Cataloging and Classification (Library and Information Science Text Series) 11th Edition Daniel N. Joudrey , Arlene G. Taylor , David P. Miller - Libraries Unlimited 2015.</p> <p>6.</p> <p>7. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni //Xalq so'zi-2011.14 aprel.</p> <p>8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-sonli qarori - 2019 yil 7 iyun.</p> <p>9 Ўзбекистон Республикасининг кутубхона библиографик классификацияси: оммавий кутубхоналар учун жадваллар / Тузувчилар: И.Э. Каттахужаева [ва бошқ.], КБК муҳаррир Э.Й. Йўлдошев, масъул муҳаррир Ф.А. Нарзулаева: Ўзбекистон</p>

	<p>Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi; Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti.- Toshkent: Istitkloq, 2003.- 502 b.</p> <p>10. Mualliflik jadvallari / Z.Sh.Berdiyeva, N.A. Isoxodjayeve, N.A. Abduvaitova.- Toshkent. 2010.-96 b.</p> <p>11. Bibliografik yozuv.Bibliografik tavsif. Umumiy talabalar va tuzish qoidalari: O'z DSt 1215. Rasmiy nashr: 2009 yil 14 aprelda № 05-143 ruyxatga olingan va 2009 yil 20 aprelda amalga joriy etilgan / Tuzuvchilar: X.Mamatraimova, D.Qudratova: O'zbekiston standartlashtirish, metralogiya va sertifikatlash agentligi - Toshkent, 2009.- 86 b.</p> <p>12. Axborot-kutubxona muassasalarida axborot resurslarini hisobga olinish tartibini tuzirishda iйuriknoma. 2014 йил 10 март №2567 рақами билан рўйхатдан ўтказилган / Ўзбекистон Республикаси алоқа ахборот ва телекоммуникация технологиялари давлат кўмитаси қарори.-Ташкент. 2014.-18б.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari:</b></p> <p>13. <a href="https://www.teacode.com/online/udc/">https://www.teacode.com/online/udc/</a>- Online UDK jadvali</p> <p>14. <a href="https://www.binghamton.edu/libraries/research/tutorials/library_catalogsh.pdf">https://www.binghamton.edu/libraries/research/tutorials/library_catalogsh.pdf</a>- Searching by Subject Heading in the Library Catalog</p> <p>15. <a href="https://www.nobelprize.org/prizes/peace/1913/fontaine/biographical/">https://www.nobelprize.org/prizes/peace/1913/fontaine/biographical/</a></p>
7.	<p>Fan dasturi TATU Kengashining 2025-yil 29.04 dagi 8/9/750/751 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>Ganiyeva B.I. - TATU, «Axborot-kutubxona tizimlari» kafedراسi professori. p.f.n.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Raxmatullayev M.A. - TATU, «Axborot-kutubxona tizimlari» kafedراسi professori. t.f.d.</p> <p>Ganiyeva D.A. - Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi direktori. p.f.n.</p>



